“BOBURNOMA” – TARIXIY-MEMUAR JANRINING NOYOB NAMUNASI

Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon qizi
Tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
E-mail: mohinurmuhammadzokirova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tarixiy-memuar janrining noyob namunasi sifatida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asarning tarixiy haqiqatni aks ettirishdagi manbaviy ishonchliligi, avtobiografik tasvir vositalari va badiiy ifoda usullari o‘rganiladi. “Boburnoma” belgilab olingan memuar janrining o‘ziga xos xususiyatlari asosida tahlil etilib, uning tarixiy-adabiy jarayondagi o‘rni hamda janr taraqqiyotiga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, memuarlar, avtobiografik ma’lumotlar, faktik materiallar.

Memuarlar muallifning o‘tmishda o‘zi bevosita ishtirok etgan yoki shohidi bo‘lgan voqealar haqidagi xotiralari bayon qilinuvchi adabiy asar hisoblanadi. Ular noyob shaxsiy hayot tajribasi va davrning tarixiy voqealari haqidagi ma’lumotlar manbasi sifatida, adabiyotning muhim tarkibiy qismidir. Memuar so‘zi asli fransuzcha: u “xotiralar”, “esdaliklar” degan ma’nolarni bildiradi. Turli manbalarda turlicha nomlar bilan uchratish mumkin: memuarlar, xotiralar, esdaliklar, eslatmalar (ingliz adabiyotida “reminiscence”) kabi.

Memuarlarning badiiyligi masalasi uzoq yillar davomida adabiyotshunoslar tomonidan muhokama qilinib, badiiy va tarixiy jihatlari uyg‘unligi masalasida izlanishlar olib borilgan. Bu masala ayniqsa, Vissarion Belinskiy tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan bo‘lib, u memuarlarni, nafaqat, tarixiy hujjatlar to‘plami, balki inson ruhiy kechinmalari va davrning ijtimoiy muhitini badiiy ifodalash vositasi sifatida qaragan.

Izlanishlarimiz natijasi o‘laroq, memuar janrining o‘ziga xos xususiyatlarini shartli ravishda quyidagicha belgilab oldik:

1. Memuarlar - o‘tmish haqidagi muallif shaxsan ishtirok etgan yoki guvohi bo‘lgan voqealar asosida yozilgan asarlardir.

2. Memuarlar uchun voqeaning birinchi shaxs nomidan bayon qilinishi, voqealar va faktik materiallarning ko‘pligi, muallifning tasvir obyektiga

subyektiv munosabatining o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishi xarakterlidir.

3. Memuarlarda real voqelik, ko‘pincha, siyosiy xronika, biografik va ilmiy ahamiyatga ega materiallar bilan uzviy bog‘lanib ketadi;

4. Unda badiiy asarlarga xos syujet usullari, nisbatan, kam ishlatiladi. Ammo muallif tasviriy vositalardan o‘rni bilan foydalanadi.

Mazkur janrning noyob na’munalaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridir.

Insoniyatning abadiyatga mansub buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Boburning o‘rni beqiyos. Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni edi. Tarixiy-memuar janrining noyob na’munasi hisoblangan “Boburnoma” asari esa uning nechog‘lik serqirra ijodkor ekanligining yaqqol misolidir.

„Boburiya“, „Voqeoti Bobur“, „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“, „Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“ kabi nomlar (Boburning o‘zi ushbu asarni „Vaqoye“ va „Tarix“ nomlari bilan tilga oladi) bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan mazkur asarda 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun asarni boshdan oxirigacha o‘qigan kitobxon o‘smir Boburni, yigit shahzoda Boburni, oshiq Boburni, umrbod jangovar lashkarboshi Boburni, podshoh va mutafakkir, mehribon ota Boburni, barcha zafar-u mag‘lubiyatlari, fazilatlari-yu nuqsonlari bilan ravshan tasavvur eta oladi.

Aftidan, Bobur yigitlik chog‘laridan yondaftar tutib, ko‘rgan-kechirganlari, tarixiy voqealar, muhim hodisalarni yozib yurgan. Tinch hukmdorlik davri boshlangach, ularni tahrir qilib, memuar asar tuzgan. Bunday fikrga kelinishining sababi shundaki, “Boburnoma” dagi ma’lumotlar shu qadar aniq va ravshan, bularni xotirada saqlab, keyinchalik qog‘ozga tushirishning imkoni ham yo‘q. Hatto ba’zi voqealar kunma-kun bayon qilingan (Sodiqov, 31).

Asar voqealari Zahiriddin Muhammad Bobur tilidan hikoya qilingan bo‘lib, muallif ma’lumotlarni maqsadli tarzda saralab, qayta ko‘rib chiqib, “bitilgudek”, “eshitilgudek” – arzirlilarinigina qayd etgan. Shu orqali sujet maqsadli yo‘naltirilgan. Bu haqida muallif asarda quyidagi fikrlarni bildiradi: “…yana bitilgudek nima nazarg‘a kelsa, tahrir qilg‘umdir; eshitulgudek nima eshitilsa, tahrir qilg‘umdur” (Bobur, 2020, 7).

Muallifning ta’kidlashicha, “Vaqoe”ni yozgani qo‘liga qalam olgan kundan boshlab voqea-hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr-mulohaza va ma’lumotlarning faqat rostini yozishga ahd qilgan.

Darhaqiqat, asar real voqealarga asoslangan. Shunga qaramay unda muallifning subyektiv nigohi ham kuchli rol o‘ynaydi. Xususan, Bobur Temuriy shahzodalar o‘rtasida yuz bergan ichki nizolar, o‘zaro adovatlarni tanqidiy ruhda tasvirlaydi va bu voqealarni Temuriylar kuchsizlanishining asosiy sababi deb biladi.

Asarning nechog‘lik qimmatli manba ekanligining isboti sifatida unda keltirilgan keng qamrovli, hozirgi paytda mavjud ellikka yaqin fan tarmoqlariga oid ilmiy ma’lumotlarni keltirishning o‘zi kifoya. Mazkur asar mana besh asrdan buyon tarixchilar, geograflar, tilshunoslar, sharqshunoslar, etnograflar, adabiyotshunoslar, botaniklar va yana ko‘plab soha vakillarini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Xususan, Bobur o‘zi borgan, ko‘rgan hududlarning tabiiy geografik sharoiti va obyektlari, ya’ni, relyefi, iqlimi, suvlari, tuprog‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosini geografik jihatdan batafsil tasvirlagan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, geografik hududlar ta’rifida muallifning geograf, tabiatshunos, yozuvchi va shoir sifatidagi qirralari mushtaraklikda namoyon bo‘ladi. Jumladan, Bobur Kobul arkining qal’asini shunday ta’riflaydi: “…Kobul qal’asining arki bu tog‘ning ustidadur. Bu ark g‘arib murtafe va yaxshi havoliq yer voqe’ bo‘lubdur. Bu ulug‘ko‘l va uch o ‘langgakim, Siyahsang va Sunan qo‘rg‘on va Cholok bo‘lg‘ay, mushriftur. Borcha oyoq ostidadur” [2. 180].

Ark tasviridan so‘ng Mullo Muhammad Muammoiydan bir bayt keltiradi:

“Bixoy dar arki Kobul may, bigardon kosa paydarpay,

Ki ham ko‘xastu ham daryo-u ham shahrastu ham sahro” (Bobur, 2020, 181).

Mazmuni:

Kobul arkida may ich,

Aylansin kosa paydarpay,

Ko‘rinar bundan ham tog‘-u, ham daryo,

Va ham shahar-u, ham sahro.

Fikrimizcha, muallif ark tasviridan so‘ng ushbu baytni keltirish orqali quruq geografik tasvirni badiiy ruh bilan jonlantiradi.

Shuningdek, “Boburnoma” da badiiy tasvir vositalaridan ham o‘rni bilan, mohirona foydalanilgan. Xususan, asarda tashbih, tazod, iyhom kabi tasviriy va ifodalilik vositalari na’munalarini ko‘plab kuzatish mumkin. Mazkur badiiy vositalar tarixiy mazmunni estetik shaklda ifodalashga, muallifning psixologik holatini va shaxsiy dunyoqarashini badiiylashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Boburnoma” - o‘z davrining tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini keng qamrab olgan va unda tarixiy memuar janrining barcha xususiyatlari mujassam. Asarda muallif o‘z hayot yo‘lini, siyosiy faoliyati, janglari, g‘alabalari va mag‘lubiyatlarini,

shuningdek, zamonasining yirik shaxslarini realistik tarzda tasvirlaydi. Bobur hodisalarni shunchaki qayd etmay, ularni badiiy tahlil, ruhiy kechinmalar va shaxsiy kuzatuvlar bilan boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov, H. (1981). Sayyoh olimlar. Toshkent: “O‘zbekiston”.
2. Iqboloy, A. (2023). Bobur ijodida kichik masnaviy janri. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
3. Jumaxo‘ja, N., va Adizova, I. (2020). O‘zbek adabiyoti tarixi:(XVI-XIX asr I yarmi)-O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 21-noyabr 5-sonli qaroriga asosan 5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik. Innovatsiya-Ziyo.
4. Sodiqov, Q. Boburning til bilimi borasidagi qarashlariga bir boqish (“Boburnoma” misolida). Sharq mash’ali jurnali, 30-46. https://doi.org/10.37547/ot/vol-01issue-02-05
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2008). “Boburnoma” (Tabdil). Toshkent: “O‘qituvchi”.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2020). “Boburnoma”. Toshkent: “Ijod-press”.